Volume 4, Issue 9, September - 2026 **ISSN (E):** 2938-3811

Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research

ISSUES OF INTERNAL AND EXTERNAL MIGRATION DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE (ON THE EXAMPLE OF KASHKADARYA REGION)

Sh. Xoliqov
Independent Researcher of KSU

Abstract
This article covers the formation of internal and external migration processes in the Kashkadarya region during the years of independence, development trends and socio-economic factors affecting them. Attention is paid to the issues of interregional migration of population, migration from rural to urban areas and migration abroad for the purpose of labor activity. Migration processes are considered in the interrelation with employment, territorial distribution of labor resources, urbanization and family well-being. The issues of social adaptation of migrants, reintegration of returned citizens into the labor market and regulation of migration processes are also discussed. On the example of the Kashkadarya region, the scientific and practical value of studying the territorial features of migration is revealed.

Keywords: Period of independence, Kashkadarya region, internal migration, external migration, labor migration, population mobility, employment, labor resources, urbanization, social adaptation, reintegration.

Introduction

Annotatsiya. Mazkur maqolada mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyatida ichki va tashqi migratsiya jarayonlarining shakllanishi, rivojlanish tendensiyalari hamda ularga ta’sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar yoritiladi. Aholining hududlararo ko‘chishi, qishloqdan shaharga migratsiyasi va xorijga mehnat faoliyatini amalga oshirish maqsadida chiqishi masalalariga e’tibor qaratiladi. Migratsiya jarayonlari bandlik, mehnat resurslarining hududiy taqsimoti, urbanizatsiya va oilalar farovonligi bilan o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, migrantlarning ijtimoiy moslashuvi, qaytib kelgan fuqarolarning mehnat bozoriga reintegratsiyasi hamda migratsiya jarayonlarini tartibga solish masalalari muhokama qilinadi. Qashqadaryo viloyati misolida migratsiyaning hududiy xususiyatlarini o‘rganishning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: mustaqillik davri, Qashqadaryo viloyati, ichki migratsiya, tashqi migratsiya, mehnat migratsiyasi, aholi mobilligi, bandlik, mehnat resurslari, urbanizatsiya, ijtimoiy moslashuv, reintegratsiya.

Licensed under a Creative Commons Attribution 4.0 International License.

Aholi migratsiyasi masalasi Qashqadaryo viloyati demografik rivojlanishidagi asosiy muammolardan bo‘lib, demografik jarayonlarning borishini belgilab beradi. Viloyat aholisining migratsiyada ishtiroki turli bosqichlarda namoyon bo‘ldi. Bunga respublika miqyosida, viloyat doirasida, viloyatlararo, chet davlatlarga tomon migratsiyalar misol bo‘la oladi. Dastlabki davrlarda migratsiyaning barcha bosqichlarida shahar aholisining ustunligi kuzatilgan bo‘lsa, so‘nggi yillarda barcha jarayonlarda qishloq aholisining faolligi ortgan.

Sobiq ittifoq parchalanishi arafasida O‘zbekistonda yashayotgan ko‘pgina millatlarning tarixiy vatanlariga qaytib ko‘chib ketishi jarayoni kuchaya boshlagan edi. Mustaqillikning dastlabki yillarida ham bu jarayonning jadalligi natijasida aholining migratsiya harakatlari ko‘rsatkichlari yuqori darajada saqlanib turdi. Bu o‘z navbatida, respublikada singari, viloyatda aholining milliy va ijtimoiy tarkibiga ta’sir ko‘rsatmasdan qolmadi. Bu davrda aholining ma’lum bir hududga kirib kelishi yoki chiqib ketishi joylardagi aholi sonining o‘sishi dinamikasiga, aholini ish bilan ta’minlash darajasiga o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Shu bilan birgalikda, viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti aholi migratsiya ko‘rsatkichlarini belgilab beruvchi omillardan biri bo‘ldi.

Aholining respublikadan ko‘chib ketishi kuzatila boshlandi. Ushbu jarayon yildan-yilga ko‘paya borib, 1990-yilda o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga chiqdi. O‘sha yili davlat organlari tomonidan rasmiy ravishda qayd qilingan migratsiyaning manfiy qoldig‘i 140 ming kishini tashkil qildi[1]. Keyingi yillarda esa u asta-sekin kamayib bordi. 1999-yil bundan mustasno bo‘lib, migratsiyaning manfiy qoldig‘i keskin ko‘tarilib ketdi. O‘zbekistonda o‘tgan asr 80-yillari oxirigacha sovet Ittifoqi respublikalari o‘rtasida migratsiya aloqalari normal holatda edi. Chet mamlakatlar bilan migratsiya aloqalari juda oz edi. Ushbu yillarda respublikadan o‘rtacha yiliga 100-150 ming odam ko‘chib ketardi va shuncha odam ko‘chib kelardi. Migratsiya jarayonidagi katta o‘zgarish 1989-1990 yillarda ro‘y berdi[2].

Bu davrda O‘zbekistonga ko‘chib keluvchilar ham, ko‘chib ketuvchilar ham ko‘p bo‘lgan. Masalan, 1991-1994-yillar davomida mamlakatimizda har yili 600 ming kishi atrofida o‘z yashash joyini o‘zgartirib turgan[3]. Bunda rusiy zabon millatlar o‘z tarixiy vatanlariga ko‘chib ketgan bo‘lsalar, O‘zbekistondan tashqarida yashagan o‘zbeklar o‘z vataniga qaytib kelgan. Huddi shunday Qashqadaryo viloyatida yashayotgan turkmanlar va tojiklar Tojikiston va Turkmaniston davlatlariga ko‘chib o‘tgan bo‘lsalar, boshqa joylarda yashayotgan o‘zbeklar o‘z yurtlariga qaytib kelganlar. 1991-1999-yillarda O‘zbekiston shahar aholi manzilgohlaridan 356,8 ming ruslar, 32,3 ming ukrainlar, 55,5 ming yahudiylar, 22,6 ming nemislar 108,0 ming tatarlar ko‘chib ketishdi[4]. Respublikamizdan 1990-2003-yillarda jami 1,5 mln. kishi ko‘chib ketdi, 500 ming kishi ko‘chib keldi[5].

Migratsiya aylanmasi, ya’ni ko‘chib keluvchilar va ko‘chib ketuvchilar yig‘indisi 1993-yilgacha Qashqadaryoda har yili 60-80 ming kishi atrofida bo‘lgan bo‘lsa, undan keyingi

[1] Миграция населения. Статистический сборник. –Ташкент, 1994. –С.28.
[2] Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитаси жорий архиви.
[3] Миграция населения. Статистический сборник. –Ташкент, 1994-2000. –С.28-40.
[4] Максакова Л.П. Миграция населения Республики Узбекистан. – Ташкент: Эльдинур, 2000. – 116 с.
[5] Парманов Ф.Я. Миграция жараёнларини бошқаришда инсон омили. // Социология фанлари номзоди . диссертация автореферати. – Т., 2012.- Б. 12.

Licensed under a Creative Commons Attribution 4.0 International License.

Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research

yillarda bu ko‘rsatkich 50 ming kishidan oshmadi[6]. Viloyatda ko‘chib yurishlar eng yuqori bo‘lgan 1991-1993-yillarda, bu jarayonda har yili 20-30 ming qatnashgan edi, keyingi yillarda ko‘chib yuruvchilar soni 20 ming kishi atrofida bo‘ldi. Qashqadaryo viloyatida 1991-yilda 1 mln 759,6 ming kishi yashagan bo‘lsa, 1994-yilga kelib 1 mln 917,9 ming kishi aholi hisobiga ko‘payganini misol qilishimiz mumkin[7].

Bu ko‘rsatkichlar viloyat markazlari Qarshi shahrida 1991-yilda 179,4 ming kishi va Shahrisabz shahrida 65,0 ming kishi yashagan bo‘lsa, 1994-yilda Qarshi shahrida 192,2 ming kishi, Shahrisabz shahrida 97,7 ming kishi aholi ko‘payishi va ko‘chib kelishi hisobiga ko‘paygan[8].

1992-1993-yillarda qo‘shni Tojikistondagi fuqorolar urushi natijasida, viloyatning G‘uzor, Nishon va Qamashi tumanlariga 12000 yaqin aholining ko‘chib kelishi kuzatildi. Ular asosan, G‘uzor tumanining Sherali, Batosh qishloqlariga, Nishon tumanining Shirinobod, 23 savxoz qishloqlariga, Qamashi tumanining Qamay qishloqlariga kelib joylashgan[9].

1998-yilda Janubiy O‘zbekiston shahar migratsiya jarayonlarida 16784 kishi qatnashgani holda Qashqadaryoda 9536 nafar kishiga ega bo‘lgan, ya’ni immigrantlarga nisbatan emmigrantlar soni yuqori bo‘lgan. Xuddi shu yilda respublika bo‘yicha migrantlar soni 208076 nafarga va migratsiya saldosi –25866 ga teng bo‘lgan. Statistik ma’lumotlardan ko‘rinib turibdaki, Janubiy mintaqaga mamlakat shahar migratsiya jarayonlarida ishtirok etganlarning atigi 8.0 foizi, migratsiya qoldig‘ining esa 3.6 foizi to‘g‘ri kelgan[10].

Migratsiyaning aholi soni o‘sishiga ta’siri uncha kuchli bo‘lmasa-da, u avvalgi yillarda salbiy bo‘lgan. Masalan, 1997-yilda shahar joylarda migratsiya qoldig‘i minus 1440, 1998-yilda 1765 kishini tashkil etgan. Qishloq joylarda bu ko‘rsatkich, yuqoridagilarga mos holda, minus va 2205 kishi. 2013-yil natijalariga ko‘ra, har ming kishi hisobiga Nishon tumaniga 9 kishi kelgan va 6 kishi ketgan, migratsiya qoldig‘i 3 kishini tashkil etgan[11]. Qarshi tumanida kelish koeffitsienti 10,5, ketish 4,0 promille, migratsiya natijasi 6,5 promille èki 0,65 %. Qashqadarè viloyatining qolgan aksariyat qishloq tumanlarida aholi migratsiyasining natijasi 2013-yilda ijobiy bo‘lgan: viloyatga kelganlar 4,8, ketganlar 3, 7 promille, migratsiya qoldig‘i minus 1,1 ‰. Manfiy ko‘rsatkichlar Qarshi shahri, G‘uzor, Muborak va Mirishkor tumanlarida qayd etilgan. Shu bilan birga ta’kidlash joizki, Quyi mintaqaning ayrim tumanlari aholisi (masalan, Muborak, Kasbi, Nishon, Mirishkor) asosan migratsiya natijasida shakllangan[12].

O‘zbekistonda migratsiya jarayonlarining huquqiy meyorlarini aks ettiruvchi qator normativ-huquqiy hujjatlar ham qabul qilindi[13]. Bu meyoriy hujjatlar O‘zbekiston fuqarolarini chet

[6] Қашқадарё вилояти статистика бошқармаси архиви. 2025 й.
[7] Қашқадарё вилояти статистика бошқармаси архиви. 2025 й.
[8] Қашқадарё вилояти статистика бошқармаси архиви. 2025 й.
[9] Pardayev A. Qashqadaryo vohasi aholisining kundalik hayoti va ijtimoiy turmush sharoiti (1985 – 2021 yy.).: Tarix fan. dokt. diss. – Qarshi, 2026. – B. 65.
[10] Қашқадарё вилояти статистика бошқармаси жорий архиви. 2010 й.
[11] Миграция населения. Статистический сборник. –Ташкент, 1994-2000. –С.28-40.
[12] Солиев.А. Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияси. Т.2014 й. 291-292 б.
[13] Ўзбекистон Республикасининг 1998 йил 1 май “Аҳолини иш билан таъминлаш тўғрисида”ги Қонуни.; 1993 йил 14 июль Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ишчи кучини олиб чиқиш ва олиб кириш тўғрисида”ги Қарори (Қарор ҳозирда ўз кучини йўқотган).; 1995 йил 19 октябрь “Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг чет элдаги ҳамда хорижий фуқароларнинг Республикадаги меҳнат фаолияти тўғрисида”ги Қарори.; 2003 йил 12 ноябрь “Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг чет эллардаги меҳнат фаолиятини ташкил этишни такомиллаштириш

Licensed under a Creative Commons Attribution 4.0 International License.

Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research

ellarda ishga joylashtirish, ularning huquqlari va manfaatlarini himoya qilishga qaratildi. Mehnat vazirligi huzurida mehnat migratsiyasini tartibga solishga imkon beradigan, yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan migrantlar masalalari bo‘yicha agentlik tashkil etildi[14].

Mamlakatimiz fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasiga kirishi, bo‘lishi, undan chiqishi hamda tranzit o‘tishi tartiblari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining (1995 yil 6 yanvar) «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet elga borishlari tartibini va O‘zbekiston Respublikasining diplomatik pasporti to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida», (1996-yil 21-noyabr) «Xorijiy fuqarolarning va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasiga kelishlari, ketishlari, bu yerda bo‘lishlari va tranzit o‘tishlari tartibi to‘g‘risida»gi hamda (2018-yil 12-sentabr) «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini xorijda uyushgan holda ishga joylashtirish tizimini yanada takomillashtirish va tubdan qayta ko‘rib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari bilan tartibga solingan[15].

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar migratsiya jarayonlarini tartibga solish mexanizmlarini belgilab bersa-da, migratsiya sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari, maqsadi, prinsiplari va vakolatli davlat organlarining vazifalarini aniq belgilab bermaydi. Bu esa, fikrimizcha, migratsiya sohasidagi faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar faoliyatini tashkil etish va vazifalarini to‘g‘ri taqsimlashga hamda ushbu subyektlar faoliyatini samarali nazorat qilishga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Qolaversa, migratsiya sohasidagi ijtimoiy munosabatlarning qonun bilan tartibga solinmagani ushbu faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlarining bu boradagi vazifa va funksiyalarini to‘g‘ri yo‘naltirishda turlicha yondashuvlarning yuzaga kelishiga olib keladi. O‘tgan davr mobaynida migratsiya jarayonlariga doir bir qator hujjatlar ratifikatsiya qilindi, bundan tashqari, ko‘plab respublikalar bilan mintaqalararo hamkorlik qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari imzolandi. Shunday bo‘lsa-da, mamlakatimizning migratsiya sohasidagi davlat siyosatini belgilash hamda barqaror ijtimoiy-demografik jarayonlarning umumiy strategiyasini boshqarishda mazkur qonun hujjatlarining o‘zi yetarli bo‘lmasligi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 12-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining xorijdagi mehnat faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi[16] Qaroriga asosan Qarshi shahrida ham fuqarolarni chet ellarda ishga joylashtirish bo‘yicha mintaqaviy byuro tashkil etilgan edi. Uning asosiy vazifasi vodiy fuqarolarining chet elda ish topishiga ko‘maklashish, xorijiy ish beruvchining talabiga muvofiq nomzodni tanlash, chiqish hujjatlarini rasmiylashtirish, viza olishga yordamlashish bo‘ldi.

чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори.; Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 15.05.2007 йилдаги 97-сон “Меҳнат фаолиятини амалга ошириш учун чет элларга кетаётган фуқароларини ҳисобга олишни такомиллаштириш тўғрисида”ги Қарори.

[14] Муртазаева Р. Глобаллашув шароитида аҳоли миграциясининг феминизациялашуви / “Хотин-қизлар ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш – мамлакатимизда амалга оширилаётган ислоҳотларнинг муҳим омили” мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани мақолалар тўплами. – Тошкент, 2019. – Б. 124.

[15] Эгамбердиев Б. Миграция жараёнлари ва қонунчилик // Ҳуқуқ ва бурч. – 2019. – № 3. – Б. 60–64.

[16] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2003 йил 12 ноябрдаги “Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг хориждаги меҳнат фаолиятини ташкил этишни такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2003 й., 21-сон, 216-модда.

Licensed under a Creative Commons Attribution 4.0 International License.

Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research

Bugungi kunda aholining migratsiyasi ikkita asosiy yo‘nalishda ro‘y bermoqda. Birinchisi, bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloqda yashayotganlarni sanoatlashgan shahar va markazlarga chorlaydigan ichki harakatlar bilan bog‘liq. Ikkinchisi, aholining respublika tashqarisiga jo‘nab ketish jarayonining davom etayotganligi bilan aloqador[17].

Migratsiya bosqichlaridan biri bo‘lgan vodiy viloyatlarida aholining ichki migratsiyada ishtiroki kuzatilganda, alohida xususiyat, ya’ni shahar bilan qishloq o‘rtasidagi migratsiya harakatlarida qishloqlarning ustunligi yuzaga kelgan. Qashqadaryo viloyatidagi ichki migratsiya jarayonlari 1991–2016-yillar davomida sezilarli pasaygan bo‘lsa-da, aholi hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan[18]. Ushbu holat doimiy migratsiyada, “mayatniksimon” (shahar yoki qishloq o‘rtasida qatnovlar va o‘quv)[19] migratsiyada namoyon bo‘ladi.

Dastlabki davr boshlarida turli millat vakillarining o‘z vatanlariga qaytish holatlari ortgach, ushbu migratsiya sur’atlari pasaya boshladi. Darhaqiqat, migratsiya jarayonlarining keyingi ko‘rinishi mehnat migratsiyasi bilan bog‘liq bo‘ldi. Bu jarayonda o‘zbeklar ko‘proq qatnashdilar. Viloyatdagi migratsiya jarayonida o‘ziga xos xususiyatlar ham namoyon bo‘lgan. 2003-yilda O‘zbekiston qishloq joylariga 57,1 ming kishi ko‘chib kelgan (2000 yilda 66,8 ming kishi) va shu yilda 92,7 ming kishi ko‘chib ketgan (2000 yilda 84,5 ming kishi). Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, respublika viloyatlarining qishloq joylari aholi migratsiyasi ko‘rsatkichlari bo‘yicha bir-biridan ancha farq qiladi. Bu xususda Toshkent, Sirdaryo, Qashqadaryo qishloq aholisining migratsion mayli birmuncha yuqori bo‘lgan holda, mazkur ko‘rsatkich ayrim hududlarda, masalan, Namangan va, ayniqsa Jizzax viloyatida juda past bo‘lgan[20].

O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlarida mehnat migratsiyasi jarayonidagi asosiy hamkori ko‘proq Qozog‘iston hamda Rossiya Federatsiyasi bo‘ldi. Hududiy yaqinlik, Qozog‘istonda mehnat bozori ko‘lamining kengligi, qo‘shimcha ishchi kuchiga talabning yuqoriligi, shuningdek, mehnatga haq to‘lashning yuqori darajasi hamda mamlakat iqtisodiy o‘sishi, yangi ish o‘rinlarining yaratilishi kabi omillar migrantlarni Qozog‘istonga jalb qildi. 2007-yil 4-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Rossiya Federatsiyasi hukumati bilan ham “O‘zbekiston Respublikasining Rossiya Federatsiyasidagi mehnatkash-migrantlari fuqarolarining va Rossiya Federatsiyasining O‘zbekiston Respublikasidagi mehnatkash-migrantlari fuqarolarining mehnat faoliyati va huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Bitim imzolandi[21].

Shuningdek, 1995-yilda Janubiy Koreya bilan O‘zbekiston o‘rtasida mehnat migratsiyasi sohasidagi dastlabki kelishuv imzolandi, shu yildan “Sanoat stajirovkasi” dasturi ishladi[22]. 2007–2017-yillar oralig‘ida ushbu asosida o‘zbekistonlik mehnat migrantlarini Koreyaga

[17] Юсупова С.Н. Аҳоли миграцияси // Фарғона водийси ресурс салоҳиятидан фойдаланишнинг геоэкологик асослари. Республика илмий-назарий конференцияси материаллари. – Фарғона, 2017. – Б. 84–86.
[18] Статистический ежегодник регионов Узбекистана. – Т.: Государственный комитет статистики, 2017. – С.29.
[19] Бобоев А. Аҳоли миграцияси ва миллий маданиятлар равнақи. – Тошкент: Ўзбекистон, 1985. – Б. 17.
[20] Қишлоқ жойлар демографияси: монография / Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий ун-ти. – Тошкент, 2005. – Б. 20–21.
[21] Кодирова З. Ўзбекистоннинг МДҲ мамлакатлари билан меҳнат миграцияси соҳасидаги ҳамкорлиги // Иқтисодиётда инновация журнали. 2018, № 3. – Б. 14.
[22] Қодирова З. Ўзбекистондан узоқ хориж мамлакатларига меҳнат ресурслари экспорти // Иқтисод ва молия 2019, № 7(127). – Б. 38.

Licensed under a Creative Commons Attribution 4.0 International License.

Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research

ishlash uchun yuborish 46,8 mingtaga yetdi[23]. Turkiyada ham o‘zbekistonlik migrantlar yil sayin ko‘payib, ayniqsa, xotin-qizlarning soni ortib bordi. Jami ayol migrantlar 17,6 foizni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkichning so‘nggi yillarda oshib borishiga mazkur davlatda mehnat faoliyatini yuritish nisbatan xavfsizligi, ish haqining yuqoriligidan tashqari, millatlar o‘rtasida do‘stona munosabat, o‘xshash urf-odatlar, yagona din va aqidalar kabi bir qator muhim jihatlar omil bo‘ldi[24].

Shu o‘rinda aytish mumkinki, 1951-yilda tashkil etilgan Migratsiya bo‘yicha xalqaro tashkilot migratsiya sohasida yetakchi hukumatlararo muassasa hisoblanadi, hukumat, hukumatlararo va nohukumat tashkilotlari bilan yaqindan hamkorlik qiladi. O‘zbekistonning MXTga a’zo bo‘lish masalasi O‘zbekiston Hukumatining rasmiy talabiga binoan kengash sessiyasi kun tartibiga kiritilgan edi. Tashkilot O‘zbekiston va Markaziy Osiyodagi boshqa mamlakatlarning odam savdosi qurbonlari va ordamga muhtoj migrantlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘mak bera boshlagan 2003-yildan buyon O‘zbekiston bilan hamkorlik qiladi[25]. 18 dekabr – Xalqaro migrantlar kuni sifatida belgilangan[26].

Qishloqlarda yashash sharoitining shaharlarga nisbatan og‘irligi u yoshlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jihatlardan to‘la qondira olmasligi qishloq aholisi hisobiga shaharlarda aholining to‘xtovsiz o‘sib borish tendensiyasini yuzaga keltirdi. Natijada, respublika ichidagi migratsiyaning asosiy yo‘nalishi qishloqdan shaharga ko‘chib o‘tish bo‘lib, bu oqim so‘nggi yillarda yanada kuchaydi. Yoshlarning oliy o‘quv yurtlariga borib o‘qishi va ishlab qolishi, shuningdek, ortiqcha mehnat resurslarining shahardan ish topishi ham ichki migratsiya saldosiga ta’sir qilmay qolmadi[27]. Aholi ulushi yuqori bo‘lgan viloyatlarga jumladan, Qashqadaryo viloyatida mehnatga layoqatli yoshlarning ulushi jami aholi ulushiga nisbatan birmuncha yuqori bo‘ldi[28].

2010–2015-yillar davomida Qashqadaryo viloyatidan Respublika bo‘yicha jami ko‘chib ketganlar soni tebranuvchi dinamikaga ega bo‘lib, 2010-yildagi 10 894 kishidan 2012-yilda 13 604 kishigacha ko‘tarilgan, 2015-yilga kelib esa 11 489 kishini tashkil etgan. Ushbu davrda viloyat ichki migratsiyasi, ya’ni viloyatning o‘z ichida ko‘chib yurganlar soni muntazam va sezilarli darajada oshib borgan: 2010-yildagi 5 203 kishidan 2015-yilda 8 261 kishigacha yetgan[29].

Viloyatdan boshqa viloyatlarga hamda xorijiy mamlakatlarga ko‘chib ketganlar ko‘rsatkichlarida esa pasayish va o‘zgarishlar kuzatilgan. Boshqa viloyatlarga ko‘chib ketganlar soni 2010-yildagi 5 421 kishidan 2012-yilda maksimal 6 965 kishiga yetgan bo‘lsa,

[23] Қодирова З.А. Меҳнат миграциясини тартибга солиш-мамлакат рақобатбардошлигини оширишнинг муҳим омили сифатида // Иқтисод ва молия. 2018, №3. – Б. 49.
[24] Абдураҳманова Г., Муҳитдинов Э. Аҳолини иш билан бандлигини оширишда ташқи меҳнат миграциясининг аҳамияти // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. Июль-август, 2018. № 4. – Б. 6.
[25] Сейтимбетов М. Ўзбекистонда тарихий-демографик жараёнлар модули бўйича ўқув–услубий мажмуа. – Нукус, 2022. – Б. 33–37.
[26] Сейтимбетов М. Ўзбекистонда тарихий-демографик жараёнлар модули бўйича ўқув–услубий мажмуа. – Нукус, 2022. – Б. 33–37.
[27] Мухамедов О. Аҳоли табиий ҳаракатининг ҳудудий тафовутлари (Самарқанд вилояти мисолида). География фан. номз. ... диссертация. – Тошкент, 2007. – Б. 21.
[28] O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.
[29] Муртазаева Р. Ўзбекистон – жаҳон миграция жараёнларининг ажралмас қисми // Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations. – 2021. – Special Issue 2. – P. 34–35.

Licensed under a Creative Commons Attribution 4.0 International License.

2015-yilga kelib 2 969 kishigacha kamaygan. Xorijga ko‘chib ketganlar soni esa nisbatan past ko‘rsatkichlarni namoyon etib, 2010-yildagi 270 kishidan 2013-yilda 177 kishigacha tushgan va 2015-yil yakunida 259 kishini tashkil etgan[30].

Qashqadaryo viloyati aholisining migratsiyada ishtiroki[31].

Hudud nomlanishi	**2010 yil**		**2020 yil**	
	Ko‘chib kelganlar	Ko‘chib ketganlar	Ko‘chib kelganlar	Ko‘chib ketganlar
Viloyatda	**10 077**	**10894**	**9425**	**30869**
Qarshi sh.	1 935	1181	1910	3272
Shahrisabz sh.			319	1379
tumanlar:				
G‘uzor	104	514	337	1077
Dehqonobod	539	668	219	1011
Qamashi	836	782	346	3162
Qarshi t	1 494	654	1764	1590
Koson	465	577	476	1101
Kitob	915	962	522	3786
Mirishkor	520	359	294	582
Muborak	377	491	241	556
Nishon	1 088	736	833	1403
Kasbi	60	602	360	835
Chiroqchi	401	743	264	3167
Shahrisabz t	1 113	1352	843	3847
Яккабоғ	230	643	696	4101

Jadvaldan ko‘rinib to‘ribdiki, 2010-yilda Qarsha shahri, Qamashi, Qarshi, Mirishkor, Nishon tumanlarida ko‘chib kelganlar ko‘chib ketganalarga nisbatan musbat nisbatda. 2020-yilga kelganda faqat Qarshi tumanida ko‘chib kelganlar musbat nisbatda qolgan barcha tumanlarda ko‘chib ketuvchilar ko‘proqni tashkil qiladi[32]. Barcha hududlarda bo‘lgani kabi Qashqadaryo viloyatida ham qishloqdan shaharga tomon harakti doimiy amalga oshgan. Natijada barcha yillarda qishloq aholisining migratsiya qoldig‘i manfiy tusga ega bo‘lgan. Bu holat qishloq aholisining ijtimoiy tarkibi, madaniy darajasi, bilim saviyasiga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatgan.

Mamlakatga doimiy yashash uchun kelayotgan shaxslar soni oshib borayotgani (masalan, 1991–2007-yillarda 482 nafar, 2017-yilda 1100, 2018-yilda esa 2528 nafar shaxs O‘zbekiston fuqaroligini olgan), ko‘plab xorijiy davlatlar fuqarolarining 30 sutkalik vizasiz rejimda bo‘lishi, turizmning rivojlanayotgani, shuningdek, 2016-yilda 5,3 mln, 2017-yilda 6,8 mln

[30] Муртазаева Р. Ўзбекистон – жаҳон миграция жараёнларининг ажралмас қисми // Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations. – 2021. – Special Issue 2. – P. 34–35.
[31] Қашқадарё вилояти статистика бошқармаси жорий архиви. 2025 й.
[32] Қашқадарё вилояти статистика бошқармаси жорий архиви. 2020 й.

Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research
Licensed under a Creative Commons Attribution 4.0 International License.
webofjournals.com/index.php/12

hamda 2018-yilda 13,8 mln yurtdoshimiz chet elga chiqib kelayotgani bilan bog‘liq masalalar migratsiya jarayonlarini boshqarishning umumiy strategiyasini belgilovchi uzoq muddatga mo‘ljallangan migratsiya siyosati konsepsiyasini qabul qilish zaruratini tug‘dirdi[33]. Shu munosabat bilan, migratsiya sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi «Migratsiya to‘g‘risida»gi qonunni qabul qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Xususan, Rossiya, Qozog‘iston, Belarus, Tojikiston, Gruziya, Ozarbayjon, Armaniston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Moldova hamda Ukrainada tashqi mehnat migratsiyasi to‘g‘risidagi qonunlar mavjud.

1991–2014-yillarda postsovet davrida O‘zbekiston Respublikasining tashqi migratsiya jarayonlarida keskin tuzilmaviy o‘zgarishlar va sur’atlarning pasayishi kuzatilib, tashqi migratsiya saldosi barcha yillarda manfiy ko‘rsatkichni tashkil etgan. Jumladan, 1991-yilda migratsiya aylanmasi eng yuqori darajaga (306,3 ming kishi yoki har 1000 aholiga 14,9) va ko‘chib keluvchilar soni 143,8 mingga teng bo‘lgan bo‘lsa, 1994 yilga kelib emigratsiya oqimi cho‘qqiga chiqqan (177,2 ming kishi ko‘chib ketgan) va manfiy saldo -137,2 ming kishini (tabiiy o‘sishning 26,9%ini) tashkil etgan. 1997-yildan e’tiboran xorijdan ko‘chib keluvchilar soni keskin kamayib, 2013–2014 yillarda 3,7–4,0 ming kishi atrofida (har 1000 aholiga 0,1) nisbiy barqarorlashgan; ko‘chib ketuvchilar soni esa 2008-yildagi 33,3 minglik eng past ko‘rsatkichdan so‘ng 2014 yilda 42,2 ming kishini tashkil qilgan. Natijada, tashqi migratsiyaning tabiiy o‘sishdagi salmog‘i 1994-yildagi 26,9 foizdan 2008-yilda 5,3 foizgacha pasaygan va 2014-yilda 7,2 foiz atrofida shakllanib, postsovet davrining keyingi bosqichlarida demografik o‘sish asosan ichki tabiiy omillar hisobiga ta’minlanganini ko‘rsatadi.

1991 va 2008 yillar oralig‘ida O‘zbekiston Respublikasining tashqi migratsiya aloqalari geografiyasida sezilarli tarkibiy va ustuvorlik o‘zgarishlari yuz bergan. Emigratsiya oqimida Qozog‘istonning ulushi 1991-yildagi 10 foizdan 2008 yilga kelib 48 foizgacha (4,80 baravar) keskin oshgan bo‘lsa, Rossiyaning salmog‘i 40 foizdan 45 foizga (1,13 baravar) ko‘tarilib, ushbu ikki mamlakat asosiy migratsion yo‘nalishga aylangan; o‘z navbatida Ukraina (20%dan 3%ga), O‘rta Osiyoning boshqa mamlakatlari (9%dan 1%ga) va boshqa xorijiy davlatlar (21%dan 3%ga) ulushi keskin qisqargan. Immigratsiya (ko‘chib kelish) dinamikasida ham o‘xshash tendensiya kuzatilib, Qozog‘istonning ulushi 17 foizdan 35 foizgacha (2,06 baravar) oshgan, Rossiyaning salmog‘i 44 foizdan 39 foizga (0,89), O‘rta Osiyo davlatlari 26 foizdan 19 foizga (0,73) va boshqa mamlakatlar ulushi 13 foizdan 7 foizga (0,54) pasaygan. Bu ma’lumotlar postsovet davrining keyingi bosqichlarida O‘zbekistonning tashqi migratsiya aloqalari asosan mintaqaviy va qo‘shni davlatlar (ayniqsa, Qozog‘iston va Rossiya) atrofida to‘planganini (konsentratsiyalashganini) ko‘rsatadi[34].

2014-yilda O‘zbekiston Respublikasidagi tashqi migratsiya jarayonlarida Qashqadaryo viloyati o‘ziga xos demografik xususiyatlari bilan boshqa hududlardan keskin ajralib turgan. Viloyatga xorijdan 317 kishi ko‘chib kelgan bo‘lib, bu respublika bo‘yicha jami ko‘chib kelganlarning 8,6 foizini tashkil etadi.Shuningdek, xorijga doimiy yashash uchun ko‘chib

[33] Эгамбердиев Б. Миграция жараёнлари ва қонунчилик // Ҳуқуқ ва бурч. – 2019. – № 3. – Б. 60–64.

[34] Максакова Л. П. Внешние миграционные связи населения Узбекистана. // Население Узбекистана: состояние, проблемы и перспективы: колл. монография. – Ташкент: Институт экономики АН РУз, 2012. – С. 219-232.

Licensed under a Creative Commons Attribution 4.0 International License.

ketganlar soni 220 kishini (respublika ko‘rsatkichining atigi 0,5 foizi) tashkil qilgan[35]. Umuman olganda, 2014-yilda Qashqadaryo viloyatida rasmiy tashqi migratsiyaning umumiy hajmi va ko‘chib ketuvchilar salmog‘i keskin past darajada saqlanib qolgan, bu esa viloyatdagi demografik o‘sish va aholi sonining ko‘payishi to‘liq tabiiy o‘sish hamda ichki demografik barqarorlik hisobiga ta’minlanganini anglatadi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda aholining ishsizlik darajasi 2000-2004-yillarda 0,4% ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2007-2017-yillarda 4,9-5,8%ni, oxirgi yillarda esa 9,0-10,5% ni tashkil etdi[36]. O‘zbekistonda har yili o‘rtacha 700 ming nafar yoshlar mehnat bozoriga kirib kelmoqda, oliy ta’lim muassasalarida o‘qishni 60 mingdan ortiq kishi tamomlamoqda. Biroq mehnat bozorining torligi va mamlakatning ishchi kuchi taklifining yuqoriligi, nisbatan past ish haqi sharoitida ishsizlarni xorijiy mamlakatlarda ish joylari izlashiga olib keladi.

O‘zbekistondan migrantlarni eng ko‘p jalb qiluvchi davlatlar Janubiy Koreya, Turkiya va AQSH hisoblanadi[37]. Chexiya, Polsha, Ummon Sultonligi va boshqa davlatlar bilan esa mehnat migratsiyasi sohasida hamkorlik o‘rnatildi. Lekin, migrantlar hayotida salbiy holatlar ham bo‘lib turdi. Bu borada Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi va uning xorijiy davlatlardagi vakolatxonalari orqali xorijda ishlayotgan, qiyin vaziyatga tushib qolgan 187 nafar mehnat migrantiga huquqiy, moddiy va ijtimoiy yordam ko‘rsatib, 348,1 ming AQSH dollari miqdoridagi ish haqlarini undirib bergan. 651 nafar mehnat migrantiga “birgamiz.com” portali orqali agentlik tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘naltirilgan bir martalik moddiy, 459 nafariga oziq-ovqat hamda naqd pul ko‘rinishida yordam ko‘rsatildi. Boshpanasiz qolgan 81 nafar mehnat migranti xostellarga joylashtirilgan, 55 nafar migrant og‘ir vaziyatga tushib qolgan, RF IIB vaqtinchalik saqlash markazlarida saqlanayotgan 34 nafar mehnat migrantlari hamda 120 nafarga yaqin vafot etganlarning jasadlari yurtimizga qaytarib olindi[38].

Yevropa davlatlariga ham migratsiya oqimi kuchayib bordi. O‘zbekistonlik mehnat migrantlari 2016-yildan Polshadagi qurilish sohalariga jalb qilindi[39]. 2016 yildan 13.700 dan ziyod O‘zbekiston fuqarolari Yevropa Ittifoqi davlatlarida rasmiy yashab keldilar.

Yangilanayotgan O‘zbekiston sharoitida migrantlarning huquqlarini qilishga qaratilgan alohida meyoriy hujjatlar[40] 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning

[35] Статистический ежегодник регионов Узбекистана. – Ташкент, 2015. – С. 65.

[36] Mamadaliyeva X.X. O‘zbekistonda migratsiya jarayonlarining hududiy xususiyatlari // Milliy iqtisodiyotni isloh qilish va barqaror rivojlantirish istiqbollari: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent, 2024. – B. 466–467.

[37] Ўзбекистонликлар Россия ва АҚШдан ташқари яна қаерларни “забт этишган”?. https://kun.uz/28586311

[38] Эшматова Ф. Мамлакат фуқароларининг ҳуқуқлари хорижда ҳам бирдек ҳимоя қилиниши лозим // Халқ сўзи, 2021 йил 2 июнь, № 115 (7895). – Б. 3.

[39] Қодирова З.А. Меҳнат миграциясини тартибга солиш-мамлакат рақобатбардошлигини оширишнинг муҳим омили сифатида. // Иқтисод ва молия. 2018, №2. – Б. 3, 50.

[40] “Tashqi mehnat migratsiyasi to‘g‘risida”gi Ўзбекистон Республикининг СҚ-617-IV-сон Қонуни.; 2018 йил 16 октябрь ЎРҚ-501-сон “Хусусий бандлик агентликлари тўғрисида”ги Қонуни.; Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 24 май ПФ-5052-сон “Бандлик соҳасида давлат сиёсатини янада такомиллаштириш ва меҳнат органлари фаолияти самарадорлигини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони.; 2018 йил 5 март ПҚ-3584-сон “Вақтинчалик меҳнат фаолиятини олиб бориш учун республика ҳудудидан транспорт орқали чет элга жўнаб кетиш вақтида Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг хавфсизлигини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори.; 2018 йил 2 июль ПҚ-3827-сон “Ижтимоий реабилитация қилиш ва мослаштириш, шунингдек, оилавий-маиший зўрлик ишлатишнинг олдини олиш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарор.; 2018 йил 5 июль ПҚ-3839-сон “Ўзбекистон Республикасининг ташқи меҳнат миграция тизимини янада такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарор.; 2019 йил 20 август ПФ-5785-сон “Хорижда вақтинчалик меҳнат фаолиятини амалга ошираётган Ўзбекистон Республикаси фуқаролари ва уларнинг оила аъзоларини ҳимоя

Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research
Licensed under a Creative Commons Attribution 4.0 International License.
webofjournals.com/index.php/12

beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirishga hamda 2020-yil 22-iyundagi Farmon bilan tasdiqlangan “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasi” va uning “yo‘l xaritasi” migrantlar huquqlarini himoya qilishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni yanada takomillashtirishga xizmat qildi. 2016-2021-yillar davomida migratsiyasi sohasida qariyb yuzga yaqin normativ-huquqiy hujjat qabul qilingan[41].

Ayni paytda migrantlar orasida noqulay ahvolga tushib qolgan, odam savdosi qurboniga aylanganlarning ko‘payishi O‘zbekiston hukumati oldiga bu borada ham zarur choralarini ko‘rish masalasini qo‘ydi. Migrantlarning huquqlarini himoya qilish va aholi orasida migratsiya holatining og‘ir oqibatlarga olib kelishi mumkinligi haqidagi qarashlarni o‘zgarishiga xizmat qiluvchi meyoriy hujjatlar qabul qilindi[42].

O‘zbekiston Respublikasi mehnat migratsiyasi sohasida Koreya Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Yaponiya, Birlashgan Arab Amirliklari, Qozog‘iston Respublikasi va Turkiya Respublikalari bilan hukumatlararo va idoralararo bitimlar imzolangan. Shu bilan birga, hukumat tomonidan Polsha, Chexiya, Bolgariya, Isroil, Qatar va Quvayt bilan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini vaqtinchalik mehnat faoliyati bilan ta’minlash maqsadida muzokaralar olib borildi[43].

2017-yil 21-dekabrda “Rossiya Federatsiyasi hududida vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini tashkiliy asosda qabul qilish va jalb etish to‘g‘risida”gi Bitim mezonlanib, unda migrantlarga munosib mehnat va turmush sharoitlarini yaratish kafolatlandi. 2018–2020-yillar davomida Rossiya Federatsiyasida mehnat faoliyatini olib boruvchilar ko‘rsatkichi 2019-yilga nisbatan 2020-yilda 4,5 foizga ko‘payganligi bilan deyarli saqlab qoldi[44].

қилиш кафолатларини янада кучайтириш чоралари тўғрисида”ги Фармон.; 2020 йил 22 июнь ПФ-6012-сон “Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси миллий стратегияси тўғрисида”ги Фармон, 2021 йил 10 сентябрь ПФ-6312-сон “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Инсон ҳуқуқлари бўйича вакили (омбудсман) фаолиятини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармон, 2021 йил 19 май ПҚ-5116-сон “Зўрлик ишлатишдан жабр кўрган хотин-қизларни реабилитация қилишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори, 2021 йил 8 февраль 60-сон “Одам савдосидан жабрланган ёки одам савдосидан жабрланган деб тахмин қилинаётган шахсларни миллий даражада қайта йўналтириш тизимини тасдиқлаш тўғрисида”ги қарори, 2021 йил 5 апрель “Камбағал ва ишсиз фуқароларни касб – ҳунарга ўқитиш тизимини такомиллаштириш ҳамда меҳнат органлари фаолияти самарадорлигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори.; Ўзбекистон Республикаси ВМнинг 2018 йил 12 сентябрь “Ўзбекистон Республикаси фуқароларини хорижда уюшган ҳолда ишга жойлаштириш тизимини янада такомиллаштириш ва тубдан қайта кўриб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори.; 2019 йил 23 августда “Хорижда вақтинчалик меҳнат фаолиятини амалга ошираётган Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 713-сон қарори ва б.

[41] Ғойибов Ж.Ч. Ўзбекистон Республикасида миграция жараёнларини маъмурий-ҳуқуқий тартибга солишни такомиллаштириш: юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Нукус, 2022. – Б. 15.

[42] Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 17 апрель ЎРҚ-154-сон “Одам савдосига қарши курашиш тўғрисида”ги Қонуни. // https://www.lex.uz/acts/1339436; Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2008 йил 8 июль ПҚ-911-сон “Одам савдосига қарши курашиш самарадорлигини ошириш чора – тадбирлари тўғрисида”ги Қарори.; Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 17 август ЎРҚ – 633-сон “Одам савдосига қарши курашиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш ҳақида”ги Қонуни.

[43] Yoqubov F.K. O‘zbekistonda tashqi migratsiya jarayonlari va uning ijtimoiy mobillik bilan o‘zaro aloqadorligi (1991–2021 yy.): tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2024. – B. 15.

[44] Кучаров Ш. Ташқи миграция–бугун ва эрта: таҳлил ва муносабат // https://review.uz/oz/post/povshaya-konkurentosposobnost-nashix-grajdan

Licensed under a Creative Commons Attribution 4.0 International License.

Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research

Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research

Mamlakatda 2019-yilning yanvar-sentabr oylarida ko‘chib kelganlar soni 117,6 ming nafarni (115,6 ming nafar respublika hududlaridan, 2 ming nafar chet el mamlakatlaridan), ko‘chib ketganlar soni esa 126,1 ming nafarni (115,6 ming nafar respublika hududlariga, 10,5 ming nafar chet el mamlakatlariga) tashkil etdi[45]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: “Bizning bu boradagi pozitsiyamiz aniq: odam qayerda bo‘lsa ham ishlashi, oilasi, bola-chaqasini boqishi kerak. Lekin u halol mehnat qilishi, qonuniy yo‘l bilan daromad topishi lozim. Buning uchun davlatimiz barcha sharoitlarni yaratib berishga tayyor”[46], deb ta’kidlagan.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, Qashqadaryo viloyatiga ko‘chib kelganlar 2016-yilda 10 194 kishi, 2017-yilda 11 091 kishi, 2018-yilda 11 015 kishi, 2019 yilda 10 727 kishi va 2020-yilga kelib 9 425 kishini tashkil etgan. Qashqadaryo viloyatidan ko‘chib ketganlar soni 2016-yilda 12 109 kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2015- yilda 15 015 kishiga, 2018-yilda 15 235 kishiga, 2019-yilda 17 466 kishiga va 2020-yilga kelib 30 869 kishiga yetgan[47].

2020-yilda Qashqadaryo viloyatiga jami ko‘chib kelganlar soni 9 425 kishini tashkil etgan. Ushbu ko‘rsatkichdan respublikaning boshqa hududlaridan ko‘chib kelganlar 8 332 kishiga, viloyat hududi ichida ko‘chib yurganlar 1 091 kishiga hamda xorijiy davlatlardan ko‘chib kelganlar 2 kishiga teng bo‘lgan[48]. Shu bilan bir qatorda, 2020-yilda Qashqadaryo viloyatidan jami ko‘chib ketganlar soni 30 869 kishini tashkil etgan. Shundan respublikaning boshqa hududlariga ko‘chib ketganlar 8 332 kishiga, viloyat hududi ichiga ko‘chganlar 21 614 kishiga hamda xorijiy davlatlarga ko‘chib ketganlar 923 kishiga teng bo‘lgan[49].

Aholi migratsiyasi shahar va qishloqlar o‘rtasida ancha rivojlangan bo‘lib, shahardan qishloqlarga kam holatlarda aholi ko‘chdi. Biroq, mustaqillik yillari O‘zbekistonda qishloq-shahar migratsiyasi o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘ldi. Mehnat qilish uchun chet ellarga ish izlab ketganlarning aksariyat qismi qishloq aholisi hissasiga to‘g‘ri keldi[50].

2019-yilning yanvar-iyun oylarida viloyat bo‘yicha ko‘chib kelganlar soni 5,4 ming kishini, 2019-yilning shu davr mobaynida ko‘chib ketganlar soni esa 8,7 ming kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig‘i minus 3,3 ming kishiga (2018 yilning shu davrida minus 2,2 ming kishi) teng bo‘ldi. Eng katta minus qoldiqlar Chiroqchi (minus 0,6 ming), Shahrisabz, Yakkabog‘, Kitob va Qamashi (minus 0,5 ming) tumanlarida kuzatildi[51].

2018 va 2019-yillarning yanvar-iyun oylarida Qashqadaryo viloyati bo‘yicha aholi migratsiyasida salbiy saldo kuzatilgan. Xususan, viloyatga ko‘chib kelganlar soni 2018-yilning

[45] O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi – Demografik holat // Электрон манба: https://stat.uz/uz/press-sluzhba/novosti-gks/7428-demografik-holat-6

[46] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг софлигини асраш – давр талаби” мавзусидаги анжуманда сўзлаган нутқи // “Халқ сўзи” газетаси, 2017 йил 16 июнь.

[47] O‘zbekiston demografik yillik to‘plami = Демографический ежегодник Узбекистана: statistik to‘plam / O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. – Toshkent, 2021. – B. 201–202.

[48] O‘zbekiston demografik yillik to‘plami = Демографический ежегодник Узбекистана: statistik to‘plam / O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. – Toshkent, 2021. – B. 199.

[49] O‘zbekiston demografik yillik to‘plami = Демографический ежегодник Узбекистана: statistik to‘plam / O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. – Toshkent, 2021. – B. 200.

[50] Гулмуродов К., Дустмуродов О., Бобомуродова Д. Қишлоқ аҳолисини иш билан таъминлашда ташкиллаштирилган миграцияни ўрганиш ва такомиллаштириш // Қишлоқ аҳолисини иш билан таъминлашнинг замонавий йўналишлари. Респ. Илм-амалий конф. материаллари. – Тошкент. 2020. – Б. 211.

[51] Қашқадарё вилоятининг статистик ахборотномаси. Демографик ҳолат. – Қарши, 2019. – Б. 12.

Licensed under a Creative Commons Attribution 4.0 International License.

Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research

mos davrida 5 937 kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2019-yilda 5 424 kishigacha kamaygan. Aksincha, viloyatdan ko‘chib ketganlar soni ortib, 2018-yil yanvar-iyunda 8 123 kishini, 2019-yilning shu davrida esa 8 745 kishini tashkil etgan. Shaharlar kesimida Qarshi shahriga ko‘chib keluvchilar soni oshgani (934 kishidan 1 264 kishiga) va ko‘chib ketuvchilar kamaygani (1 251 kishidan 1 180 kishiga) kuzatilgan bo‘lsa, Shahrisabz shahrida ham keluvchilar (160 dan 205 ga), ham ketuvchilar soni (215 dan 398 ga) ko‘paygan.

Tumanlar darajasida esa aksariyat hududlarda ko‘chib ketganlar soni ko‘chib kelganlardan sezilarli darajada yuqori bo‘lgan. Masalan, 2019-yil yanvar-iyun oylarida Chiroqchi (718 ketuvchi / 126 keluvchi), Shahrisabz (865 ketuvchi / 356 keluvchi), Yakkabog‘ (882 ketuvchi / 355 keluvchi), Kitob (705 ketuvchi / 238 keluvchi) va Qamashi (698 ketuvchi / 238 keluvchi) tumanlarida migratsiyaning chiqish oqimi yuqoriligicha qolgan. Shu bilan birga, G‘uzor, Dehqonobod, Koson, Mirishkor, Muborak va Kasbi tumanlarida ham ko‘chib ketuvchilar soni ustunlik qilgan, faqatgina Qarshi va Nishon tumanlarida keluvchilar ko‘rsatkichi nisbatan yuqori darajada saqlanib qolgan.

2016–2020-yillar oralig‘ida O‘zbekiston jami aholisi izchil o‘sib, 31 575,3 ming kishidan 34 558,9 ming kishiga yetgan bo‘lib, yillik umumiy o‘sish sur’ati 1,73% dan 1,93% gacha ko‘tarilgan. Aholi sonining asosiy ortishi yuqori tabiiy o‘sish (2016-yildagi 571,4 ming kishidan 2020-yilda 666,2 ming kishiga) hisobiga ta’minlangan bo‘lsa-da, jami aholi migratsiya manfiy qoldig‘ini (-26,2 ming kishidan -12,5 ming kishiga) saqlab qolgan. Tahlil shahar va qishloq aholisi o‘rtasidagi aniq farqlarni ko‘rsatadi: shahar aholisi migratsiya salbiy ko‘rsatkichlaridan (2016-yilda -15,3 ming) keskin ijobiy tomonga o‘tib (2020 yilda +44,8 ming), yillik o‘sish sur’atini 1,80% dan 2,14% ga oshirgan bo‘lsa, qishloq aholisida manfiy migratsiya salmog‘i 2016-yildagi -10,9 ming kishidan 2020-yilda -57,3 ming kishigacha keskin ortib, urbanizatsiya va ichki migratsiyaning kuchayganligini va qishloqning asosiy demografik manba bo‘lib qolayotganini ko‘rsatadi[52].

2019–2023-yillar oralig‘ida O‘zbekiston Respublikasining tashqi migratsiya dinamikasida sezilarli tebranishlar kuzatilib, barcha yillarda xorijga doimiy yashash uchun ko‘chib ketganlar soni kelganlarga nisbatan bir necha barobar yuqori bo‘lganligi sababli tashqi migratsiya saldosi barqaror manfiy ko‘rsatkichni saqlab qolgan. Jumladan, xorijdan ko‘chib kelganlar soni 2019-yildagi 2,5 ming kishidan (1,0 ming erkak va 1,5 ming ayol) 2020-yilda pandemiya cheklovlari fonida 1,1 minggacha qisqargan bo‘lsa, 2023-yilga kelib 3,0 ming kishiga (1,5 ming erkak va 1,5 ming ayol) yetdi; xorijga doimiy yashash uchun ko‘chib ketganlar soni esa 2019-yildagi 13,2 ming kishidan (5,3 ming erkak va 7,9 ming ayol) 2021-yilda maksimum 20,1 minggacha oshgan, 2022-yilgi pasayishdan (8,8 ming) so‘ng 2023-yilda qaytadan 17,3 ming kishini (8,3 ming erkak va 9,1 ming ayol) tashkil etgan. Gender tarkibi tahlili shuni ko‘rsatadiki, ko‘rib chiqilayotgan davrda ham ko‘chib keluvchilar, ham xorijga ko‘chib ketuvchilar orasida ayollar salmog‘i erkaklarga nisbatan nisbatan yuqori darajada saqlanib qolgan[53].

[52] O‘zbekiston demografik yillik to‘plami = Демографический ежегодник Узбекистана: statistik to‘plam / O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. – Toshkent, 2021. – B. 14.

[53] Статистика миграции в Республике Узбекистан // https://stat.uz/uz/

Licensed under a Creative Commons Attribution 4.0 International License.

Shu o‘rinda aytib o‘tish kerakki, 2020-yilning yanvar-dekabr oylarida respublika bo‘yicha ko‘chib kelganlar soni 191,2 ming kishini, ko‘chib ketganlar soni esa 203,7 ming kishini tashkil etdi[54]. O‘zbekiston Respublikasiga xorijiy mamlakatlardan ko‘chib kelganlarning asosiy qismi Qozog‘iston Respublikasi (jami xorijdan ko‘chib kelganlarga nisbatan 37,0 %), Rossiya Federatsiyasi (22,3 %), Tojikiston Respublikasi (20,0 %), Qirg‘iz Respublikasi (8,5 %), Turkmaniston (1,3 %) va boshqa mamlakatlar (10,9 %) hissalariga to‘g‘ri keladi[55].

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasidan xorijiy mamlakatlarga ko‘chib ketganlarning asosiy qismi Qozog‘iston Respublikasi (jami xorijga ko‘chib ketganlarga nisbatan 64,3 %), Rossiya Federatsiyasi (29,3 %), Isroil (1,2 %), Qirg‘iz Respublikasi (0,9 %), Tojikiston Respublikasi (0,6 %), va boshqa mamlakatlar (3,7 %) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Qashqadaryo viloyatida 2019–2020-yillarda aholi migratsiyasi manfiy saldoning keskin ortib borishi bilan tavsiflanadi. Ko‘chib keluvchilar soni 2019 yildagi 10,7 ming kishidan 2020-yilda 9,4 ming kishiga kamaygan bo‘lsa, ko‘chib ketuvchilar soni deyarli ikki baravarga ko‘payib, 17,5 ming kishidan 31,7 ming kishiga yetgan. Natijada, migratsiya saldosidagi manfiy farq 2019-yildagi -6,8 ming kishidan 2020-yilda -22,3 ming kishigacha pasayib, viloyatni mamlakat miqyosida eng yuqori sof aholi chiqib ketishi kuzatilgan hududlardan biriga aylantirgan[56].

2023-yilda xorijdan O‘zbekiston Respublikasiga doimiy yashash uchun ko‘chib kelganlar geografiyasida MDH mamlakatlari, xususan, Rossiya Federatsiyasi va Qozog‘iston Respublikasi ustuvor o‘rin tutadi. Jumladan, jami ko‘chib kelganlarning eng katta ulushi Rossiya Federatsiyasi hissasiga to‘g‘ri kelib, 1 175 kishini (umumiy hajmning 39,8 %i) tashkil etgan bo‘lsa, ikkinchi o‘rinni Qozog‘iston egalladi (726 kishi yoki 24,6 %). Markaziy Osiyoning boshqa qo‘shni davlatlaridan ko‘chib kelganlar salmog‘ida Tojikiston 286 kishi (9,7 %), Qirg‘iziston 150 kishi (5,1 %) hamda Turkmaniston 61 kishi (2,1 %) ko‘rsatkichini qayd etgan bo‘lsa, dunyoning boshqa mamlakatlaridan doimiy yashash uchun kelganlar soni 557 kishini (18,7 %) tashkil qildi. Ushbu statistika 2023-yilda O‘zbekistonga immigratsiya oqimining qariyb uchdan ikki qismi (79,3 %i) aynan qo‘shni va an’anaviy hamkor MDH davlatlari hisobiga to‘g‘ri kelganini ko‘rsatadi[57].

2023-yilda O‘zbekiston Respublikasidan xorijiy mamlakatlarga doimiy yashash uchun ko‘chib ketganlar geografiyasida Qozog‘iston va Rossiya Federatsiyasi mutlaq ustuvorlikni tashkil etadi. Jumladan, eng katta emigratsiya oqimi Qozog‘iston Respublikasi hissasiga to‘g‘ri kelib, 14 051 kishini (jami ko‘chib ketganlarning 81,1 %ini) tashkil etgan bo‘lsa, ikkinchi o‘rinni 2 670 kishi (15,4 %) ko‘rsatkichi bilan Rossiya Federatsiyasi egalladi. Qolgan mamlakatlar kesimida Janubiy Koreyaga 107 kishi (0,6 %), Qirg‘izistonga 91 kishi (0,5 %), Turkmanistonga 40 kishi (0,2 %) hamda dunyoning boshqa davlatlariga doimiy yashash uchun ko‘chib ketganlar soni 377 kishini (2,2 %) tashkil qildi. Ushbu statistika 2023-yilda mamlakatdan xorijga doimiy ko‘chib ketganlarning mutlaq ko‘pchiligi (96,5 %i) aynan Qozog‘iston va Rossiya yo‘nalishlariga to‘g‘ri kelganini ko‘rsatadi[58].

[54] Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати. Статистик тўплам. – Тошкент, 2021. – Б. 458.
[55] Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати. Статистик тўплам. – Тошкент, 2021. – Б. 458.
[56] Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати. Статистик тўплам. – Тошкент, 2021. – Б. 469.
[57] Статистика миграции в Республике Узбекистан // https://stat.uz/uz/
[58] Статистика миграции в Республике Узбекистан // https://stat.uz/uz/

Licensed under a Creative Commons Attribution 4.0 International License.

2021-yil xalqaro mehnat tashkilotining ma'lumotlarga ko'ra, "sayyoramizda xalqaro migrantlar soni 281 million kishini (ularning uchdan ikki qismi mehnat muhojirlari) tashkil etib, 1990-yilga nisbatan 119 millionga oshgan. Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, 2050-yilga kelib, migrantlarning umumiy soni 500 million kishiga yetadi"[59]. O'zbekiston Respublikasi Perezidenti ta'kidlaganidek, "Mamlakatimizda har yili 600-700 ming aholi mehnat bozoriga kirib keladi. Qariyb 200 ming kishining bandligini tashqi mehnat migratsiyasi orqali ta'minlashga to'g'ri kelmoqda. Qayerda mehnat migratsiyasi to'g'ri tashkil etilgan bo'lsa bandlik, oilalar daromadi, malakali mutaxassislar ko'paygan"[60].

Aholining migratsion harakati asosan uch turga, ya'ni doimiy migratsiyaga, mavsumiy migratsiyaga va tebranma migratsiyaga bo'linadi. Kishilarning bir aholi punktidan boshqa bir aholi punktiga, masalan, qishloqdan shaharga yoki davlatlararo doimiy yashash joyini o'zgartirish maqsadida ko'chib yurishi doimiy migratsiyaga xos jarayondir. Doimiy migratsiya mamlakatning ichki xududida va davlatlararo bo'lishi mumkin[61]. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilning yanvar-dekabr oylarida respublika bo'yicha ko'chib kelganlar soni 191,2 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 203,7 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 12,5 ming kishini tashkil etdi. 2019-yilning mos davrida migratsiya saldosi minus 10,6 ming kishini tashkil etgan[62].

2023-yilda ishsizlik eng yuqori bo'lgan hududlar sirasiga Qashqadaryo viloyati (11,1%) ham kirdi. 2023 yilda O'zbekistonning 2 million 40 ming nafar fuqarosi yoki jami mehnatga layoqatli aholisining 12 % i xorijda ishladi. Jumladan, Qashqadaryo viloyatidan 178 ming kishi mehnat migratsiyasi ishtirokchisi bo'ldi[63].

Migratsiyaning aholi soni o'sishiga ta'siri uncha kuchli bo'lmasa-da, u salbiy. 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 9 150 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 16 263 kishini tashkil qilgan, 2022-yilda migratsiya qoldig'i minus 7289, 2023-yilda minus 7113 kishini tashkil etgan. 2023-yil natijalariga ko'ra, har ming kishi hisobiga Yakkabog' tumaniga 460 kishi kelgan va 1393 kishi ketgan, migratsiya qoldig'i minus 933 kishini tashkil etgan. Qarshi tumanida 1505 kishi kelgan va 1394 kishi ketgan, migratsiya qoldig'i 111 kishi. Qashqadaryo viloyatining qolgan aksariyat qishloq tumanlarida aholi migratsiyasining natijasi manfiy bo'lgan. Eng katta minus qoldiqlar Qamashi (minus 1 168), Yakkabog' (minus 933) va Shahrisabz (minus 817) tumanlarida kuzatilgan.. Shu bilan birga ta'kidlash joizki, Quyi mintaqaning ayrim tumanlarini aholisi (masalan, Muborak, Kasbi, Nishon, Mirishkor) asosan ichki migratsiya natijasida shakllangan.

[59] Idiboyev A.J. Globallashuv davrida aholi farovonligini ta'minlashda migratsion jarayonlarning ta'siri // Globallashuv sharoitida migratsion jarayonlarning mafkuralar va madaniyatlarga ta'siri: muammo va yechimlar: respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. – Jizzax, 2023. – B. 95.

[60] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 17 avgustda Xorijda mehnat qilayotgan fuqarolarni qo'llab-quvvatlash masalalari muhokamasiga bag'ishlangan videoslektor yig'ilishidagi ma'ruzasi. https://president.uz/uz/lists/view/3780

[61] Utanov B.K., Sirliyeva Z.U. O'zbekistonda aholi migratsiyasi jarayonlarini ekonometrik tadqiqi // Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. – Paris, 2023. – P. 338.

[62] Utanov B.K., Sirliyeva Z.U. O'zbekistonda aholi migratsiyasi jarayonlarini ekonometrik tadqiqi // Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. – Paris, 2023. – P. 338.

[63] Mamadaliyeva X.X. O'zbekistonda migratsiya jarayonlarining hududiy xususiyatlari // Milliy iqtisodiyotni isloh qilish va barqaror rivojlantirish istiqbollari: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent, 2024. – B. 466–467.

Licensed under a Creative Commons Attribution 4.0 International License.

O‘zbekistonda demografik jarayonlarning mexanik harakatini, ya’ni ichki va tashqi migratsiya oqimlarini boshqarishning huquqiy va institutsional rivojlanishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 17-oktabrdagi “Migratsiya jarayonlarini boshqarish tizimini isloh qilish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-162-son Farmoni[64] muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur hujjat migratsiyani shunchaki “mehnat va bandlik” masalasidan chiqarib, uni milliy demografik xavfsizlik darajasiga ko‘tarmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun respublika tashqarisiga transportda chiqish vaqtida xavfsizligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga asosan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida xorijga ishga chiqayotgan fuqarolarga imtiyozlar berilgani, maslahat markazlari tashkil etilgan[65]. Shuningdek, chet elda ishlayotgan fuqarolarimiz manfaatlarini himoya qilish, zarur hollarda ularga amaliy yordam ko‘rsatish maqsadida Koreya Respublikasida Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining vakolatxonasi ochilgan. Rossiya Fereratsiyasi va yana bir nechta davlatda vakolatxonalarni ochish yuzasidan barcha tashkiliy ishlar yakuniga yetkazilgan.

Migratsiya jarayonlari tahlili ham muhim demografik tendensiyalarni ochib beradi. 2025-yilda xorijdan ko‘chib kelganlar soni atigi 1 159 kishini tashkil etgan bo‘lsa, xorijga ko‘chib ketganlar soni 10 117 kishiga yetgan. Bu holat tashqi migratsiya saldosining manfiyligini ko‘rsatib, aholi soni o‘sishi asosan tabiiy o‘sish hisobiga ta’minlanayotganini anglatadi. Shu bilan birga, ichki migratsiya hajmining yuqoriligi ya’ni 251 mingdan ortiq mamlakat ichida hududiy qayta taqsimlanish jarayonlari faol kechayotganini ko‘rsatadi[66].

Xullas, aholi migratsiyasida aholining qishloqdan shaharga ko‘chish jarayoni ko‘proq ko‘zatildi. Masalan, Qarshi, Shahrisabz, Kitob tumanlarining aholisi asosan qishloq aholisining shaharga ko‘chishi jarayoni yuz berdi. 2000 yildan boshlab, viloyatda asosan mehnat migratsiyasi kuzatila boshlandi. Natijada, aholining mehnatga layoqatli qatlami asosan Rossiya, Qozog‘iston, Toshkent, qisman Janubiy Koreya va Turkiyaga mehnat migratsiyasini amalga oshirmoqda. Bugungi kunda fuqarolarning xorijdagi mehnat migratsiyasini ularning manfaatlarini himoya qilish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi.

[64] “Миграция жараёнларини бошқариш тизимини ислоҳ қилиш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармон. https://lex.uz/docs/7170458

[65] Сейтимбетов М. Ўзбекистонда тарихий-демографик жараёнлар модули бўйича ўқув–услубий мажмуа. – Нукус, 2022. – Б. 33–37.

[66] Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси. Демографик ҳолат бўйича расмий маълумотлар. 2025 йил. – Тошкент, 2026.

Licensed under a Creative Commons Attribution 4.0 International License.